



**MARKAZIY OSIYO MINTAQASI MAMLAKATLARIDA SARGUZASHT
TURIZMIGA OID YONDASHUVLAR. SARGUZASHT TURIZMI
KLASSIFIKATSIYASI.**

Ro'zmetov Sherzod Qahramanovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston misolida sarguzasht turizmining shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari hamda unga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Mintaqaning tog'li hududlari, cho'l landshaftlari, tabiiy qo'riqlanadigan zonalari va etnomadaniy merosi sarguzasht turizmini rivojlantirish uchun muhim resurs sifatida baholanadi.*

Maqolada sarguzasht turizmining ilmiy tasnifi (klassifikatsiyasi) ishlab chiqilib, u faoliyat turi, xavf darajasi, tabiiy muhit xususiyati, mavsumiylik va infratuzilmaviy ta'minot mezonlari asosida guruhlarga ajratiladi. Shuningdek, ekstremal, ekologik, tog'-sport, suv sporti, sahro va etnosarguzasht turizmi kabi yo'nalishlarning o'ziga xos jihatlari ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlar tahlili hamda hududiy-geografik metodlardan foydalanilgan. Xulosa sifatida, Markaziy Osiyoda sarguzasht turizmi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish, bandlikni ta'minlash va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning istiqbolli yo'nalishi ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *sarguzasht turizmi, Markaziy Osiyo, turizm klassifikatsiyasi, ekstremal turizm, ekoturizm, tog' turizmi, barqaror rivojlanish, turizm infratuzilmasi, mintaqaviy turizm siyosati.*

Abstract: *This article examines the approaches to adventure tourism in the countries of Central Asia — Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan — analyzing its formation, development trends, and theoretical interpretations. The region's mountainous landscapes, desert territories, protected natural areas, and ethnocultural heritage are assessed as key resources for the development of adventure tourism.*

The article proposes a scientific classification of adventure tourism based on criteria such as type of activity, risk level, natural environment characteristics, seasonality, and infrastructure support. It highlights specific forms including extreme tourism, eco-adventure tourism, mountain and trekking tourism, water-based adventure activities, desert tourism, and ethno-adventure tourism. The research methodology includes a systemic approach, comparative analysis, statistical evaluation, and regional-geographical methods. The study concludes that adventure tourism in Central Asia represents a promising sector for regional economic development, employment generation, and increasing competitiveness in the international tourism market.



Keywords: *adventure tourism, Central Asia, tourism classification, extreme tourism, ecotourism, mountain tourism, sustainable development, tourism infrastructure, regional tourism policy.*

Insonlarning kundalik mehnat sharoiti tarzidan dam olish, sog'ligini tiklash va boshqa maqsadlarda bir joydan ikkinchi joyga sayohati hisoblanuvchi turizm sohasi zamonaviy dunyoda keng taraqqiy qilmoqda. Shu o'rinda qayd etish lozimki, muayyan mamlakatda turizmning rivojlanishi faqat insonlarning xordiq chiqarishi yoki salomatliklarini tiklashi bilan bog'liq bo'lib qolmaydi. Bunda turizm mamlakatlar iqtisodiyotining muhim tarmog'iga ham aylana boradi. Turistik xizmatlar resurs sarflamagan holda davlatlar byudjetiga daromad tushumini hosil qiladi. Shuningdek, turistik yo'nalishlar faollashgan hududlarda infratuzilma takomillashadi. Turizm obyektlarida xizmat ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan yangi ish o'rinlari esa har qanday davlatning asosiy muammolaridan biri bo'lgan ishsizlik darajasini kamaytiradi, aholi daromadlarini oshirib boradi. O'z navbatida ishsizlik darajasining kamayishi mamlakat ichidagi jinoyatchilikning ehtimoliy xavfini pasaytiradi. Pirovardida turistik xizmatlar bozoridan tushadigan daromadlar mamlakatlar iqtisodiyotini yuksaltiradi. Yuqoridagi ijobiy holatlar tufayli har qanday davlat o'z hududida turistik xizmatlar bozorini kengaytirishni asosiy maqsad qilib belgilaydi.

Ilmiy tasnifiga ko'ra turizm geografik va turistik talab yo'nalishlari, maqsadi, moliyalashtirish manbasi, sayohat etuvchilar soni, tashkiliy shakllari hamda ishtirokchilarning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha alohida shakllarda tarmoqlanadi[1]. Tasniflashning birinchi ko'rsatkichi bo'yicha turizmning milliy, xalqaro, hududiy (mintaqaviy), ichki, kiruvchi, chiquvchi turlari mavjud[2].

Milliy turizm deganda muayyan davlatda mavjud bo'lgan tabiat manzaralari, madaniy meros obyektlari, ijtimoiy qadriyatlarni sayyohlarga ko'rsatish uchun qilinadigan harakatlar majmuasi nazarda tutiladi. Milliy turizmning tarkibiy qismi sifatida xordiq chiqarish, ta'lim olish yoki davolanish kabi jihatlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Milliy turizm dam olish, ishbilarmonlik, ta'lim va tibbiy turizm kabi turli xil sayohat shakllarini o'z ichiga oladi.

Xalqaro turizm esa- odamlarning doimiy yashash joyidan sog'lomlashtirish maqsadida yoki bo'sh vaqtlarida bilishga oid qiziqishlarini qondirish uchun vaqtincha chiqib ketishining barcha shakllari uchun umumiy tushunchani ifodalaydi[3].

Kirish va ichki turizmga diqqatga sazovor joylarga ekskursiyalar, mehmonxonalar, dam olish maskanlari, kurortlar, sanatoriylar, sayyohlik qishloqlarida bo'lish, uy-lagerlar, milliy taom va ichimliklarni tatib ko'rish, festival va bayram tadbirlarida ishtirok etish kabi turistik mahsulotlar kiradi[4].

Turistik sayohatning maqsadlariga ko'ra esa tarixiy obidalar, arxeologik, rekreatsion, sog'lomlashtiruvchi, malakaviy, ilmiy, sport, savdo-sotiq, diniy (ziyosat), qo'msash-sog'inish, ekoturizm, ovchilik, gastronomik turizmi, safari, speleoturizm, ma'rifiy, ekstremal, etnografik, ta'lim, tibbiy turizm kabi yo'nalishlari mavjud.





Moliyalashtirish manbalari bo'yicha esa sotsial va tijoriy turizm kabi farqlanish mavjud. Sotsial turizm- davlat tomonidan ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan subsidiyalanadigan sayohatlar turkumidir. Sotsial turizm bilan shug'ullanuvchi maxsus byuro 1963-yil 7-iyunda Bryusselda tashkil etilgan edi[5]. Xalqaro sotsial turizm byurosi Jahon sayyohlik tashkilotining a'zosi sanalib, ijtimoiy turizm maqsadlari Jahon sayyohlik tashkilotining 1980- yilda qabul qilingan Manila deklaratsiyasida yaqqol aks etgan edi[6].

Tijorat turizmi esa jismoniy shaxslar, odatda yakka tartibdagi tadbirkorlarning keyinchalik sotish va foyda olish maqsadida ma'lum tovarlarni sotib olish uchun xorijiy davlatlarga yoki mamlakatning boshqa hududlariga qiladigan sayohatlaridir[7].

Globalashuvning yuqori darajasi, dunyoning ko'pgina hududlarida iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanganligi, hayot darajasining yangi bosqichlarga ko'tarilganligi turizmning juda ko'plab yangi turlari paydo bo'lishiga, an'anaviy turizm jozibadorligining qisman yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda yoshlar o'rtasida keng ommalashayotgan turizmning yangi turi bu – sarguzasht turizmi hisoblanadi.

Sarguzasht turizmi boshqa turizm turlari kabi Yevropada paydo bo'ldi. Bu yo'nalishning asoschilari va dastlabki foydalanuvchilari zamonaviy yevropalik yoshlar bo'lishdi. Mazkur turizmning paydo bo'lishiga bir xil hayot tarzidan zerikish, dam olishni yangi sarguzashtlar bilan boyitish, ilgari tashrif buyurilmagan joylarda ekstremal sharoitlarda yashab ko'rishga harakat va boshqalar sabab bo'ldi.

Dunyo amaliyotida sarguzasht turizmiga yondashuv turlicha ekanligini ta'kidlash lozim. Ya'ni, ko'pgina hollarda sarguzasht turizmi sport turizmi yoki ekstremal turizm tushunchalari bilan aralashgan holda talqin etilishi holatlari uchraydi. Biroq, butun jahon turizm tashkiloti sarguzasht turizmini turizm bozorida eng rivojlanayotgan segment ekanligini ta'kidlagani holda, boshqa turizm turlaridan farqlanishini alohida qayd etib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Биржаков М.Б. Введение в туризм. СПб., 2000.-С.63.
2. Elektron resurs: Turizm turlari. https://gov.uz/oz/pages/tourism_type.Murojaat qilingan sana: 19.07.2025.
3. Миронов Ю. Перспективы международного туризма. Москва. 2008. -С.6.
4. Elektron resurs: Turizm turlari. https://gov.uz/oz/pages/tourism_type. Murojaat qilingan sana: 19.07.2025.
5. Азар В. Экономика и организация туризма. Москва:1993. -С.79.
6. Elektron resurs: <https://buklib.net/books/25242/>. Murojaat qilingan sana: 19.07.2025.
7. Коммерческий туризм : методические рекомендации / сост.: В.А. Талай, М.В. Хлопцева. – Витебск : ВГУ имени П.М. Машерова, 2021. – С. 4.

